

TIL O'RGANISHNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI

Xakimjonova Sevinch O'lmasboy Qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro

Universiteti I Namangan filiali,

Ingiliz tili fakulteti talabasi

TEL : +998(95)-168-60-05

E-mail: sevinchxakimjonova4@gmail.com

*The importance of learning languages in human life***Xakimjonova Sevinch O'lmasboy daughter**

Toshkent Kimyo International University

Namangan branch, student of

the English Education faculty

Tel: +998(95)-168-60-05

E-mail: sevinchxakimjonova4@gmail.com

Abstract

This explores the importance of language learning in human life focusing on mental, article social, cultural, and professional dimensions. The research is based on the author's critical observations, comparative analysis, and personal findings rather than simple literature review. The relationship between language and thinking is examined through the ideas of classical scholars and modern linguists. Furthermore, the role of foreign language learning in the era of globalization and its impact on personal development, flexible, and social integration are highlighted. The findings show that language learning plays a critical role in cognitive development and professional advantage.

Key words: language learning, communication, thinking, culture, foreign language, globalization, personal development.

ANNOTATSIYA

Til inson hayotida muhim hisoblanadigan vositalardan biri bo'lib, u insonni nafaqat muloqot vositasi, balki tafakkur, madaniyat va ijtimoiy ongning muhim ko'rinishi hisoblanadi. Inson o'z fikrini rivojlantirishi bilimlarini ifodalash va jamiyat bilan aloqaga kirishishda til yordam beradi. Shu sababli til o'rganish mavzusi barcha davrlarda muhim omil sifatida ko'rilib kelgan. Abu Nasr Forobiy ta'kidlaganidek, inson kamoloti bilim va nutq madaniyatisiz mumkin emas, chunki til orqali ilm jamlanadi va jamiyatga uzatiladi.

Bugungi kunda zamonaviylashib borayotgan jarayonlar til o'rganishga bo'lgan talablarni va ehtiyojlarni yanada kuchaytirdi. Davlatlararo aloqalar, ilm-fan, zamonaviy

texnologiyalar va zamonaviy ta'lim usullari til organishni talab qilib bormoqda. Ko'pgina kuzatuvchilar fikriga ko'ra, til bilgan shaxs jamiyatda faolroq bo'lib, ijtimoiy va kasbiy muhitga tezroq moslashadi. I.A. Karimov asarlarida ham til milliy ma'naviyat va o'zlikni saqlashning asosiy omillaridan biri sifatida talqin qilinadi.

Til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlik

Til va tafakkur o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, biri ikkinchisiz to'liq namoyon bo'la olmaydi. Mashhur tilshunos olim Vilgelm fon Gumboldt tilni inson tafakkurining shakllanish vositasi sifatida ko'rgan. Uning fikriga ko'ra, har bir til dunyoni o'ziga xos tarzda idrok etishga yordam beradi. Sharq mutafakkiri Abu Nasr Forobiy ham tilning bilim olishdagi ahamiyatini ta'kidlab, nutq va tafakkur inson kamolotining asosiy omillari ekanini qayd etgan. Avvalgi ijodkorlarning gapiga ko'ra, til orqali bilim jamlanadi va avloddan avlodga uzatiladi.

Til — madaniyat va milliy o'zlik ifodasi

Til millatning tarixiy xotirasi hisoblanadi va shu bilan birga madaniy merosini o'zida mujassamlashtiradi. Har bir tilda xalqning urf-odatlar, qadriyatlari va dunyoqarashi aks etadi. Shu sababli chet tillarini o'rganish boshqa madaniyatlarni anglash va dunyoqarashni kengaytirishga yordam beradi. Vilgelm fon Gumboldt fikriga ko'ra, til inson tafakkurini shakllantiradi va har bir til dunyoni idrok etishning o'ziga xos modelini yaratadi. Bundan tashqari Amerikalik tilshunos Edvard Sapirning fikriga ko'ra, til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik insonning borliqni qanday qabul qilishini shuningdek, chet tilini o'rganayotgan shaxs boshqa madaniyatlarga nisbatan bag'rikengroq bo'lib boradi va uning dunyoqarashi boshlalaridan farq qiladi.

Til o'rganishning shaxsiy rivojlanishga ta'siri

Til o'rganish insonning muhim ehtiyoqlaridan bir hisoblanadi. Til o'rganish xotirani diqqatni jamlashni va intellektual faolligini oshiradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bir nechta tilni bilgan shaxslar murakkab vaziyatlarda tezroq qaror qabul qila olish qobiliyatiga ega boladi chet tilini o'rganish jarayonida insonda o'ziga bo'lgan ishonch kuchayadi, nutqi madaniyati rivojlanadi va ijtimoiy faollik ortadi. Bu holat ayniqsa talaba va yosh mutaxassislar faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi. H. Douglas Brown fikriga ko'ra, til o'rganishda psixologik omillar va motivatsiya muhim ahamiyatga ega. Inson hayotida til o'rganish har tomonlama foydali va kerakli jarayonlardan biri hisoblanadi.

Globallashuv sharoitida til o'rganish

Xozirgi zamonaviy dunyoda globallashuv jarayonlari til o'rganishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirdi. David Crystal fikriga ko'ra, til texnologiya va globallashuv bilan chambarchas bog'liq. Zamonaviy ta'lim tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar til o'rganish samaradorligini oshiradi. Globallashuvga oid ilmiy manbalarga ko'ra, chet tillarini bilish insonning xalqaro jamiyatga munosabatini oshiradi. Globallashuv sharoitida chet tillarini qobiliyatlarini oshiradi. David Crystal

fikricha, til texnologiya va globallashuv bilan chambarchas bog‘liqdir, va zamonaviy ta’lim tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar til o‘rganish samaradorligini oshiradi

Xulosa

Til o‘rganish inson hayotida nafaqat aloqa vositasi va kasbiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Tadqiqot natijalari va ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, til va tafakkur o‘rtasi uzviy bog‘liqlik inson fikrlash doirasini kengaytiradi, muloqot qobiliyatini oshiradi va yangi bilimlarni. Yangi tillarni o‘rganish shaxsning kognitiv salohiyatini rivojlantiradi, xotira, diqqat va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini kuchaytiradi. H. Douglas Brown fikricha, til o‘rganishda psixologik omillar va motivatsiya muhim ahamiyatga ega, va Vivian Cook ko‘p tillilik insonning kognitiv salohiyatini oshiradi, shaxsning jamiyatda faol va moslashuvchan bo‘lishiga yordam beradi. Ta’lim jarayonida esa tabiiy til muhiti, tushunarli axborot va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar til o‘rganishni samarali qiladi. Stephen Krashen nazariyasiga ko‘ra, chet tilini o‘rganishda tabiiy til muhiti va tushunarli axborot muhim omil hisoblanadi, Rod Ellis ikkinchi tilni o‘zlashtirish jarayonini murakkab va bosqichma-bosqich kechadigan jarayon sifatida tasvirlaydi.

Umuman olganda, til o‘rganishga bo‘lgan e’tibor shaxsning intellektual va madaniy o‘sishi, kasbiy muvaffaqiyati hamda global jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun muhim shartdir. Shu birga, ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, til o‘rganish jarayoni samarali tashkil etilganida insonning shaxsiy va professional rivoji sezilarli darajada oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. — Toshkent : Fan, 1993.
2. Karimov, I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Gumboldt, Vilgelm fon. Til va tafakkur falsafasi. — Moskva: Progress, 1984.
4. Sapir, Edward. Language: An Introduction to the Study of Speech. — New York: Harcourt, Brace & Company, 1921.
5. Whorf, Benjamin Lee. Language, Thought, and Reality. — Cambridge, MA: MIT Press, 1956.
6. Saussure, Ferdinand de. Course in General Linguistics. — London: Duckworth, 1983.
7. Halliday, M. A. K. Language as Social Semiotic. — London: Edward Arnold, 1978.
8. Vygotsky, L. S. Thought and Language. — Cambridge, MA: MIT Press, 1986.
9. Chomsky, Noam. Aspects of the Theory of Syntax. — Cambridge, MA: MIT Press, 1965.
10. Brown, H. Douglas. Principles of Language Learning and Teaching. — New York: Pearson Education, 2007.

11. Cook, Vivian. Second Language Learning and Language Teaching. — London: Hodder Education, 2016.
12. Krashen, Stephen D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. — Oxford: Pergamon Press, 1982.
13. Ellis, Rod. The Study of Second Language Acquisition. — Oxford: Oxford University Press, 1994.
14. Richards, Jack C., Rodgers, Theodore S. Approaches and Methods in Language Teaching. — Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
15. Stern, H. H. Fundamental Concepts of Language Teaching. — Oxford: Oxford University Press, 1983.
16. Crystal, David. English as a Global Language. — Cambridge: Cambridge University Press, 2003